

**BOSHLANG'ICH TA'LIM TALABALARINING KASBIY  
DEONTOLOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASI**

*Kalandarova Fazilatxon Toxirovna*

*ADU mustaqil tadqiqotchisi*

*[kalandarovafazilat3@gmail.com](mailto:kalandarovafazilat3@gmail.com) <tel:93-6923276>*

***Annotatsiya.** Maqolada oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uning ochiqligi, insonparvarligi hamda shaxsga yo'naltirilganligi, ta'limning barcha bo'g'inlari orasidagi uzviylikni, dunè ta'lim muhiti bilan integratsiyalashuvini ta'minlash va talabalarda kasbiy deontologik kompetensiyasini rivojlantirish kabi bir qator muhim dolzarb vazifalarni bajarish masalasi haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** kasbiy rivojlanish, deontologik kompetensiya, ta'lim- tarbiya, ilm-fan, axborot texnologiyalari, pedagogik deontologiya, kompetentlik, kompetensiya, fan, metodologik yondashuvlar, bo'shlang'ich sinf o'qituvchisi, kasbiy etika,*

**Kirish.**

Ijtimoiy hayot taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi oldiga bir qator o'ta muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish masalasini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Bulardan ayrimlari sifatida ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, fanlar, mavzulararo, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi aloqadorlik va uzviylik muammolarini hal qilish, ta'limning barcha uchun ochiqligini ta'minlash, dunyoning rivojlangan ilmiy-ta'limiy muhiti bilan integratsiyalashuv jarayonlarini tezlatish kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Axborot va innovatsion texnologiyalar inson hayotiy faoliyatining barcha sohalarini mazmuniga jadal sur'atlar bilan kirib borishi, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, unga axborot texnologiyalarini joriy etish

masalasining juda keng ko'lamda muhokama qilinishiga qaramasdan, oliy ta'limi muassasalarida bu sohada olib borilayotgan amaliy ishlar ko'lamini va unga qaratilgan e'tiborni talab darajasida deb bo'lmaydi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari va kuzatishlarimiz tahlili oliy ta'lim o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy usullarga nisbatan ustun ekanligini hamda bevosita ta'lim jarayonida kompyuter va innovatsion didaktik texnologiyalardan foydalanishga nisbatan kam e'tibor qaratilayotganligini aniqlash imkonini berdi [1].

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimiz oliy pedagogik ta'lim tizimi oldiga ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uning ochiqligi, insonparvarligi hamda shaxsga yo'naltirilganligi, ta'limning barcha bo'g'inlari orasidagi uzviylikni, dunyo ta'lim muhiti bilan integratsiyalashuvini ta'minlash kabi bir qator muhim dolzarb vazifalarni bajarish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi. Axborot texnologiyalari asri hisoblanayotgan XXI asrda o'sib yosh avlodni o'z bilimi, intellektual va ijodiy imkoniyatlari bilan ilm-fan va ishlab chiqarishni yangi metod va texnologiyalar bilan boyita oladigan shaxslar sifatida shakllanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik tayyorlash avvalo, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni sifatli tayyorlashga bog'liq. Mutaxassislarining kompetentlik darajasi, kasbiy mahorati, kasbiy deontologik kompetensiyasi, pedagogik jarayonlarni to'g'ri va maqsadli boshqara olishi o'quvchi shaxsini tarkib toptirish muvaffaqiyatini belgilab beradi. Bu oliy pedagogik ta'lim tizimi, umuman ta'lim va kadrlar tayyorlash uchun mas'ul bo'lgan barcha tashkilotlar oldiga bo'lajak pedagoglarning barkamol shaxsni tarbiyalash jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga kasbiy tayyorgarligi masalalarini yanada mukammal tadqiq qilishdek dolzarb vazifani qo'yadi.

**Muhokama.** O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tishi uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Mazkur model vujudga keltirgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanlarning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan texnologiyalarni amaliyotga keng qamrovda joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va

sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiëti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'yimoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalarida paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsa-da, hanuzgacha o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangidan-yangi yo'nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ular bo'yicha kadrlar tayyorlash zaruriyati, o'zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil oshirib borishga ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga talabning ortishi sanaladi. Mavjud sharoitda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini malakali kadrlar bilan ta'minlashda puxta asoslangan ega bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasasi bosqichi alohida o'rin tutadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, tezkorlik bilan rivojlanayotgan davr mutaxassislari oldiga shiddatli o'zgarishlarga tayyor turish, davr bilan hamqadam bo'lib, ijtimoiy va kasbiy nuqtai nazardan o'z-o'zini shakllantirish va kasbiy deontologik kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini qo'yimoqda. Mutaxassislarning mazkur talabga to'laqonli javob bera olishida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishini juda muhim. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarining, ya'ni bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga to'laqonli tayyorlash borasidagi malakasi, pedagogik mahorati, o'quv-tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalari ustuvorligini ta'minlovchi shaxsiy sifatleri, o'quvchilarning bilimlarini xolis nazorat qilish va baholash layoqati mavjud ijtimoiy talablarga mos bo'lishi zarur. Shuningdek, ular tomonidan ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikma, malakalarini rivojlantirish va ularning kasbiy deontologik kompetentligini to'xtovsiz rivojlantirib

borishni ham taqazo etadi.

**Natija.** O'zbekiston Respublikasida pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy deontologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning zamonaviy pedagogik hamda tegishli sohalarga oid bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish yo'lida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. O'quv dasturlarini ishlab chiqishda talabalarning kasbiy deontologik kompetentligi, ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bundan tashqari, o'quv dasturlarini tayyorlashda Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning tajribasidan keng foydalanilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy tayyorgarlik faoliyatini yanada takomillashtirishning quyidagi yo'nalishlarini belgilab olishimiz zarur: oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining kasbiy deontologik tayyorgarlik darajasini doimiy ravishda oshirib borishga erishish maqsadida ularning nazariya, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan kasbiy fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishning zamonaviy metodlari sohasidagi so'nggi yutuqlarni o'rganib borish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsion texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini chuqur o'rgangan holda bevosita ta'lim jarayoniga amaliy tatbiq etish asosida barcha mutaxassisliklar bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalari, dastur va metodlarini doimiy takomillashtirib borish; oliy ta'lim muassasalari talabalarining xorijiy tillarni o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasbiy va ilmiy faoliyatini doimiy ravishda oshirib borishida samarali foydalanish; oliy ta'lim muassasalari ta'lim yo'nalishlarida uzluksiz malakaviy amaliyotni yuqori saviyada o'tkazish va tanlangan ob'ektlarda bitiruv malakaviy ishlarni tajriba sinovdan to'laqonli bajarilishiga erishish orqali malakali pedagoglar tayyorlash; magistratura bosqichi talabalarining ilmiy faoliyatini yanada samarali tashkil etish borasida ularning ilmiy stajirovkalar davridagi faoliyati bo'yicha olib boriladigan ishlarni takomillashtirish. Ayniqsa, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tahlil qilishga, ilmiy tadqiqot bo'yicha amalga oshiriladigan tajriba-sinov ishlaridan olingan natijalarni ilmiy asoslashga o'rgatish; malakali o'qituvchilar hamda ilmiy pedagogik kadrlar

tayyorlashni yanada takomillashtirishga erishishni ta'minlash maqsadida kadrlarni rivojlangan xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlarini tashkil etish. Ushbu yo'nalishlarning barchasini ta'minlanishi oliy ta'lim muassasalari talabalarning, bo'lajak fan o'qituvchilarini pedagogik faoliyatini tashkil etish, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirishga nisbatan mas'uliyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kompetentlilik va kompetensiya so'zlari bir-biri bilan bog'liq va biri ikkinchisini to'ldiradigan tushunchalardir. Shunga ekan, kompetensiya tizimi amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatidan o'zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni jamlagan. Zero, yetarli darajada kompetensiyasi taraqqiy etmagan va rivojlanmagan mutaxassislar o'z vazifalarini mukammal bajara olmaydi.

Kompetentli deb, muayyan bir sohaga oid ma'lumotga ega bo'lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kasb egasiga aytiladi. “Kompetensiya” va “kompetentlilik” tushunchalari tizimdagi amaliy va nazariy tayyorgarlik jihatdan tafovutlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kompetensiya – davlat standartlarida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, har bir kasb egasining muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun muhim bo'lgan ta'limiy (professional) tayyorgarligidir.
- kompetentlilik – kasb egasi tomonidan egallangan mutaxassisligiga doir bilim, ko'nikma, malakalar, shaxsiy va kasbiy sifatlari bo'lib, muayyan sohada orttirilgan tajribasidir. Pirovard natijada yuqori malakali kadrlarni tayèrlash va salohiyatini oshirishga erishiladi.

**XULOSA** Xulosa qilib aytganda, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tizimli tashkil etish – bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy deontologik kompetentligini oshirishga, yuqori malakali, mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiya jarayonining sifatli tashkil etilishini, malakali kadrlar tayyorlashda yuksak samaradorlikka erishishni kafolatlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi [www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

O‘RQ-637-son

qonuni.–<https://lex.uz>

2. Ахметжанова Г.В. Инновационные подходы формирования готовности образования в информационном обществе как актуальная социальнопедагогическая проблема // Азимут научных исследований: педагогика и психология. 2012. № 1. С. 15-17.

3. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p.119-281.

4. Ibragimov L. Z., & Khamroyeva F. A. (2021). Development of Small Business and entrepreneurship in industry and its influence on employment of population. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3 (03), 163-170.

5. Ibragimov Lutfullo Ziyadullayevich, Musayev Bekzod Murodovich, & Mirzayev Farkhod Sayidovch. (2021). Employment of population and its geographical study. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 163–167. <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/1400>

6. Ibragimov, L. (2016). Importance of studying natural and geographical potential of regions in economicgeographical research (A case study of Samarkand Region). Science and World. International scientific journal. Russia [online] № 7 (35) Vol. II. pp.111-114 Available at: <http://scienceph.ru/>.

7. Ibragimov, L. (2016). State policy in supporting an employment of the population in Uzbekistan. Lucrările Seminarului Geographic “Dimitrie Cantemir”. Romania. [online] 41 (1), pp.113-118. Available at: <http://www.seminarcantemir.uaic.ro>.

8. Ibragimov, L. (2017). Specialization of agriculture - as the solution to the problem of employment (A case study of Samarkand Region). European Science Review. Austria [online] 1 (2), pp.19-23. Available at: <http://www.ew-a.org>.

9. Tojiyeva Z., Dusmanov F., Ibragimov L. (2020). Divorcing procedures in Uzbekistan and its territorial features. In International journal of scientific & Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies technology research, vol. 9, no.1, pp.4096-4100. ISSN 2277-8616. 1